

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

Xo'shboqova Farida Komiljon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, 3-kurs talabasi

Tel: +998 99 768 06 47

Annotatsiya:

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining insonlar bilan aloqa qilishida ya'ni, muloqot orqali munosabat o'rnatishni fanlarning bilimlarini bir-birini to'ldirishi orqali shakllantirishning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, munosabat, aloqa, kommunikatsiya, fikr almashish, ijtimmoiy munosabatlar, integratsiya, fanlararo bog'lanish, shakllantirish.

Mamlakatimizda ta'lif tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lif, fan-ishlab chiqarishni integratsiyasilash tez-tez tilga olinmoqda. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi ahamiyatli g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'lifni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllatirishda integrative yondashuv asosida shakllantirish masalalari Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning "Taraqqiyot strategiyasi"da va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzlusiz ta'lif tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lif jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bolmoqda. Jumladan, Talim to'g'risidagi qonunning 9-moddasida Boshlangich talim talim oluvchilarda umumiy orta talimni davom ettirish uchun zarur bolgan savodxonlik, bilim, malaka va konikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan deb alohida takidlangan[1].

Ta'lilda integratsiyani qo'llash bugungi kun o'quvchilari uchun fan qiyinchiliklari, mavzularning ortiqcha tushunarsiz holatlarini bartaraf etish, mavzularni o'quvchilar ong-u-shuuriga singib ketishi kabi mashaqqatli vaziyatlarning o'z yechimini topmoq yetakchi sifatida yordam bermoqda. Zamon

tobora avj olib o'zgarayotgan bir paytda, ta'lismizga ham talaygina o'zgarishlar va yangiliklar kiritilmoqda. Shu jumladan, umumiyo'rta ta'lismaktablaridagi va ko'plab ixtisoslashtirilgan maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun fanlarni integratsiyalab o'tish talab qilinmoqda[3]. Yuqoridagi muammoli vaziyatlar va boshqa ko'plab ziddiyat hamda kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida o'z hissamizni qo'shish maqsadida quyidagi Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish" nomli maqolani yozishga qaror qildik.

Ushbu maqola mazmunan: boshlang'ich ta'lism, boshlang'ich sinf, integratsiya, integrativ ta'lism, kommunikatsiya, kommunikativlik, kommunikativ mamadaniyat, nutqiy madaniyat, muloqot madaniyati, kommunikativ shakllanish, ilmiy dunyoqarash, rivojlanish kabi tushunchalarni qisqacha izohini berib boramiz.

Boshlang'ich ta'limumumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida Boshlang'ich ta'lim 1–4-sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6–7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega[1].

Integratsiyaso'zi lotincha "integrotiklash, to'ldirish", "integerbutun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, integratsiyaayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir[2]. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alovida tizimlarning bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integrativ ta'lism o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroficha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda aniq va lo'nda, ravon ifoda erishgan muyassar bo'lishadi, chunki bu yondashuvda bilimlarning tub mohiyati keng ochib berish imkoniyati olamni bir butunlikda, bir-biriga bog'liq holda tasavvur qilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi[2].

Kommunikativlik shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, suhbatdoshini tinglash va eshitish qobiliyatini, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'matish, va noverbal xulq-atvorining ko'rinishi[4].

Muloqot madaniyati odamlarni hurmat qilish, xayrixohlik, samimiyat, bag'rikenglik va hokazolar kabi ma'lum xarakter xususiyatlarining mayjudligini

nazarda tutadi. Muloqot madaniyati xushmuomalalilik kabi o'ziga xos xususiyatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi[4].

Xushmuomalalilik xarakterli xususiyat, uning asosiy mazmuni insoniy muloqotning turli vaziyatlarida muayyan xatti-harakatlar qoidalariga rioya qilish odati, odob-axloq qoidalariga rioya qilishdir[4].

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir.

Yuqorida ko'rib chiqqan ilmiy atamalar va ularga berilgan munosib ta'riflar orqali shuni tushunishimiz mumkinki, bugungi kunning yosh avlod vakillari bo'lmish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarni bir-biriga integratsiyalash orqali o'tilsa ham darslar qiziqarli o'tadi, ham o'quvchilar o'ziga kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga fanlarni bir-biriga integratsiyalab o'tish jarayoni o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ko'plab ko'zga ko'ringan hal qilish biroz qiyin bo'lган yoki shunaqa qiyindek ko'ringan va bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan tushunarsiz, ziddiyatli, qiyin va zerikarli, qiziqarsiz va boshqa ko'plab shunga o'xshash holatlardan halos bo'lish imkonini beradi.

O'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida mavzularni tushuntirar ekan, bu jarayonlarda kitobidagi mavzulardan biroz chetlab boshqa fanlar bilan ham aloqasini, bog'liqlik tomonlarni topib, shu bog'liqlik joylarini o'quvchilarga sodda va ravon tilda tushuntirib bersa, bu holatda ham o'qituvchi o'z maqsadiga erishadi. Bundan tashqari, o'quvchilar mavzuni ortiqcha qiyinchiliksiz zerikmasdan tushunib olishadi. Buning uchun o'qituvchilardan shu kunda o'tadigan mavzuni o'qib-o'rganib, tahlil qilib, o'quvchilar uchun tushunarsiz va biroz chigal, biroz murakkabroq bo'lган jumlalarini o'ziga belgilab olib, shu jumlalarni fanlararo integrativ yondashuv asosida tushuntirib bersa, ta'lim talablari, ish rejasи va o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan natijasiga oson va samarali erishadi.

O'qituvchilar o'z darslarida integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish shakllantirar ekan,

avvalo, o'zi kommunikativ shakllangan, integrativ dars ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi darkor[5].

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida fanlararo integratsiyani barcha o'tilayotgan darsliklar mavzusida qo'llashimiz lozim.

Integrativ yondashuv nima ekanligini boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda qiziqarli va esda qolarli qilib tushuntirish va ongiga singdirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili, o'qish darslarida mavzularni xalq og'zaki ijodi ijodi namunalari bilan ham integratsiyalab o'tish kerak, chunki bola o'zi yashayotgan millatning ma'naviy-ma'rifiy merosidan boxabar bo'lishi lozim[2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsliklar tarkibiga o'zbek xalq maqollari, o'zbek xalq topishmoqlari, tez aytishlar, ibratli hikoyalar, masal, matal kabi ogzaki meroslarimizdan ko'proq qo'shib tushuntirib berishimiz lozim. Chunki, yosh o'sib kelayotgan avlod vakillari bu kabi ibratli so'zlardan o'zlariga juda yaxshi fikrlarni qabul qilib olishlari lozim.

Aynan boshlangich sinf oquvchilarini darslikdagi uyga vazifa qilib berilgan biron hikoyani aytib berishda qiynaladi. Odatda buning sabablari, mavzuni yaxshi oqimaganligi, hikoyani aytib bera olish qobiliyati yoqligi, sinfdoshlaridan tortinishi hamda shu mavzuga oid qoshimcha bilimlari va mustaqil fikrlari bolmaganligi uchun toliq yoritib berishga qiynaladi. Biz quyidagi oqish va tabiiy fanlar hamda tarbiya darsliklaridagi mazmunan bir-biriga mos bolgan mavzularni integratsiya qilib o'quvchiga tushuntirish metodikasini korsatib o'tamiz.2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi[6] "**Chumolining jasorati**" hikoyasini 3-sinf Tabiiy fanlar darsligining 7-bobi 23-mavzusida berilgan "**Tabiatni muhofaza qilish**" mavzusi[7] bilan bog'lab, ya'ni ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi hikoyani kengroq tushuntirish va tabiatni muhofaza qilish haqida ma'naviy fikrlar bilan to'g'rilib aytilsa, mavzu yanada mazmunli va qiziqarli chiqadi.

Chumolining jasorati. (Hikoya.) Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o'tloq bo'lган екан. У yerda qo'y-qo'zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar екан. Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg'ir deyarli yog'mabdi. Jazirama quyosh tig'ida o'simliklar qurib qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o't ketibdi. Kutilmagan yong'in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. У о'tloq yaqinidagi buloqdan mitti og'izchalarida suv keltirib

olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko'rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi: – Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o'chib qolarmidi? Qo'y bu ishingni, joningni asra! Shunda chumoli yumushidan to'xtamay javob beribdi: – To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmaydi. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq – mening Vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman. Chumolining bu gapi o'tloq ahliga qattiq ta'sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to'xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug'ida qo'y-qo'zilar og'zida suv keltirib, olovni o'chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.[6]

Yuqoridagi hikoya orqali Vatanga bo'lган muhabbat, sadoqat ,mehr, fidoyilik, Vatan uchun kurash Vatanni asrab-avaylash, uning zarracha tuprog'i ham buyuk ne'mat ekanligini tushunishimiz mumkin bo'ladi. Vatan qanchalar aziz va muqaddas, uni asrab avaylash, Vatanni suyish, Vatanni himoya qilish kabi tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirar ekanmiz, bizga bu hikoya haqiqiy madad kuchi vazifasini o'tab beradi, albatta. Faqat, buni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish jarayonida biroz sodda tilda ravon nutq bilan, bizni o'rab turgan ona tabiat misolida tushuntirib berilganda o'quvchilarda bu kabi samimi tuyg'ular va fazilatlar yanada to'liq shakllana boradi Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqorida aytib o'tilgan tushunchalarga murakkab bir mujmal so'zlar yoki tushunarsiz ibora o'laroq munosabat bildiradi. Shunday ekan biz o'quvchilarni bu kabi jarayonlarda integrativ yondashuvlarimizdan foydalanishimiz nur ustiga a'lo nur, ya'ni maqsadga muvofiq bir usullardan biri bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. Bu hikoyani boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tabiatni muhofaza qilish" mavzusi bilan integratsiyalab tushuntirar ekanmiz, bu jarayonda biz ,avvalo, tabiat ham Vatanning bir bo'lagi ekanligini ,tabiatni asrab-avaylash orqali Vatanni asrashimizni tushuntirib o'tishimiz talab qilinadi. Chunki endigina maktab deb atalmish ulug' dargohga qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday murakkab tushunchalar halinl to'liq rivojlanishga ulgurmagan, yoki tushunsa ham o'z suhbатdoshiga bu tushunchalarning mohiyatini tushuntirib berish qobiliyati shakllanmagan, ya'ni kommunikativ madaniyat rivojlanmagan bo'ladi. Yuqorida keltirib o'tilgan hikoya qahramoni chumoli obrazi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari jussasi kichkina bir

hasharot ham o'z Vatanini qanchalar sevib ardoqlashi, o'z Vatani uchun qo'lidan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solishi, zarracha imkon bo'lsa ham imkoniyatini o'z Vataniga sadoqati yo'lida ishga solishini, kichkina bir o'tloq qanchadan qancha chumolilar ,asalarilar, qo'y-qo'zilar,kakliklar, toshbaqalar va boshqa jonzotlar uchun ulug' makon ekanligini anglashi lozim. Chumolining og'zida olib kelgan zarracha suv butun bir boshli olovni o'chirishga qodir emasligini bilsada o'z Vataniga bo'lgan muhabbat, sadoqati tufayli chumoli qo'lidan kelgan barcha imkoniyatlardan foydalanadi va bu jarayonni o'z vatandoshlariga shu qadar sermazmun va ibratli yo'sizda tushuntirib beradiki, natijada qolgan o'tloq jonzotlari ham bu ishga o'z hissasini qo'shib olovni bartaraf etishdek buyuk bir maqsadga erishib Vatanini balolardan asrab qolishadi. Bu jarayonni nafaqat Tabiiy fanlar, balki, O'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Kuch birlikda", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Oltovlon ola bo'lsa og'zidagini oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa tepadagini endirar" kabi maqollar bilan ham bog'lab tushuntirishimiz mumkin va bu usullar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirishda juda samarali usullar qatoriga kiradi. Shu va shunga o'xshash pedagogik usullarni qo'llar ekanmiz biz o'qituvchilarning ham pedagogik salohiyatimiz oshadi, ham ta'lim va tarbiya berayotgan o'quvchilarimiz kelajakda o'z fikrini munosib tarzda har jihatdan chiroyli va obrazli nutqi orqali yetkazib, tushuntirib bera oladigan yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun katta hissa qo'shgan bo'lamiz.

O'quvchilar bir darsning o'zida Vatan, Vatanni suyish kabi tushunchalarni anglab yetadi, shu bilan birgalikda hikoyani uyga vazifa qilib aytib berganda mustaqil fikrlardan ham foydalanadi. Bunday mustaqil fikrlarni esa boshqa fanlardan, ya'ni mavzuga oid bo'lgan fan tabiiy fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lab chiroyli nutq so'zlab beradi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish yo'lidagi eng samarali usullardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-soni.
"Ta'lim to'g'risida" gi qonun.
2. R.Mavlonova, N.Vohidova va b. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. -314 b.

3. Hayitov.A.I. Boshlang'ich ta'lism pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi. Uslubiy qo'llanma. T.: "Zuhra Baraka Biznes", 2021. – 129 b.
4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahurat. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2011.-425 b.
5. Bakhtiyorovna, M. Z. (2021). Integrated teaching of primary education. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1332-1336.
6. O'qish kitobi. [Matn]: 3-sinf uchun darslik / M.Umarova, X.Xamrakulova, R. Tojiboyeva. Mas'ul muharrir U.Hamdamov. 4-nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU. 2019.- 216 b.
7. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 88 b.
8. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.
9. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompitensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Science and innovation, 1(B7), 1009-1015.
10. Hayitov, A., & Yusupova, I. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. Science and innovation, 1(B7), 1262-1267.
11. Hayitov, A., & Xo'Shoqova, F. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. Science and innovation, 1(B7), 1028-1034.
12. Адилова, М. Ф. (2021). Формирование экологической культуры у учеников начального образования на основе медиатехнологий. Science and Education, 2(6), 543-546.
13. Адилова, М. Ф. (2020). РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ. Science and Education, 1(7), 452-455.
14. Ergasheva, G. M., Sotiboldieva, S. J., & Adilova, M. F. (2020). COMPREHENSIVE APPROACH TO ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE IN PRIMARY SCHOOL BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (1), 56-62.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st March, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

15. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif fanlari kafedrasi dotsenti, PhD. In Научно-практическая конференция (pp. 51-52).
16. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 740-745.
17. Hamida, N. (2022, March). ERTAK JANRI ORQALI O'QUVCHILARNI MA'NAVIY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.69. 87.106 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lif fanlari kafedrasi dotsenti, PhD Ikromova Nafosat, Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistri. In Научно-практическая конференция.